FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.FM.05.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

MIRSABUROVA UMIDA MIRAXMATOVNA

ELLIPTIK-GIPERBOLIK VA SOHA ICHIDA BUZILADIGAN GIPERBOLIK TIPDAGI SINGULYAR KOEFFITSIENTLI TENGLAMALAR UCHUN SILJISHLI MASALALAR

01.01.02 – Differensial tenglamalar va matematik fizika

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI
bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Farg‘ona – 2024

UDK: 517.956

Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по физико – математическим наукам

Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on Physical – Mathematical Sciences

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.FM.05.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

MIRSABUROVA UMIDA MIRAXMATOVNA

ELLIPTIK-GIPERBOLIK VA SOHA ICHIDA BUZILADIGAN GIPERBOLIK TIPDAGI SINGULYAR KOEFFITSIENTLI TENGLAMALAR UCHUN SILJISHLI MASALALAR

01.01.02 – Differensial tenglamalar va matematik fizika

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI
bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Farg‘ona – 2024

Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosofy) dessertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovasiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/FM867 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Termiz davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (uzbek, rus, ingliz (rezyume) bayon qilingan. Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.fdu.uz) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (http://www.ziyonet.uz/) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Urinov Axmadjon Kushakovich** fizika-matematika fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Apakov Yusufjon Pulatovich** fizika-matematika fanlari doktori, professor
	Ro'ziyev Mengliboy Xoltojiboyevich fizika-matematika fanlari doktori, dotsent
Yetakchi tashkilot:	Samarqand davlat uninersiteti

Dissertatsiya himoyasi Farg'ona davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2019.FM.05.04 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil «18» 01 soat 10^{00}dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 150100, Farg'ona shahar, Murabbiylar ko'chasi 19-uy, tel. (99873) 244-44-02, faks: (0573) 244-44-93 e-mail: farduinfo@umail.uz).

Dissertatsiya bilan Farg'ona davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (326 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil:150100, Farg'ona shahar, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy. tel: (0573) 244-44-94)

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «05» 01 kuni tarqatildi.
(2024-yil «04» 01 dagi 6 raqamli reyestr bayonnomasi)

Sh.T.Karimov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi o'rinbosari, f.-m.f.d., dotsent

I.U.Xaydarov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, f.-m.f.n., dotsent

E. Kar

E.T.Karimov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash huzuridagi ilmiy seminar raisi, f.-m.f.d., dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda amaliy va nazariy xususiyatga ega boʻlgan koʻplab matematik modellarni oʻrganishda, aksariyat hollarda aralash tipdagi yoki buziluvchan giperbolik tipdagi differensial tenglamalar uchun kombinatsiyalshtirilgan lokal va nolokal shartlili masalalarni tadqiq etish, asosiy oʻrinlardan birini egallamoqda. Ayniqsa, aralash tipdagi tenglamalar hamda soha ichida buziladigan giperbolik tipdagi tenglamalar uchun qoʻyilgan klassik masalalarni **singulyar koeffitsiyentli aralash tipdagi tenglamalar (SKATT)** va **soha ichida buziladigan singulyar koeffitsiyentli giperbolik tipdagi tenglamalar (SIBSKGTT)** uchun umumlashtirgan holda noklassik usulda ta’riflash va ularni tadqiq etish hamda amaliyotga joriy etish dolzarb vazifalardan biri boʻlib kelmoqda. Shu jihatdan bu tipdagi tenglamalar uchun noklassik masalalarni tadqiq etishga qiziqishning ortishi, ilmiy asoslangan nazariy va amaliy natijalar olinishi, hamda ularning boshqa sohalarda, ya’ni gazlar dinamikasida, gidrodinamikada, cheksiz kichik bukiluvchi sirtlar nazariyasida, mexanikada, akustika va elektron sochilishi nazariyasida qoʻllanishi muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jahonda SKATT va SIBSKGTT uchun chekli va chegaralanmagan sohalarda kombinatsiyalashtirilgan lokal va nolokal shartlili chegaraviy masalalarni tadqiq etishga yoʻnaltirilgan qator ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada, ayniqsa Trikomi sharti xarakteristikaning bir qismida berilishi; Frankl shartiga oʻxshash shartni ichki xarakteristikada berilishi, Bitsadze-Samarskiy shartini chegaraviy va unga parallel ichki xarakteristikada berilishi kabi masalalarni oʻrganishga alohida e’tibor berilmoqda. Masalalarning noklassik qoʻyilishi yangi tipdagi Trikomining nostandart singulyar integral tenglamalarni oʻrganishga olib keladi va ularni yechish maqsadli ilmiy tadqiqotlardan biri hisoblanadi.

Respublikamizda matematik fizika, matematik biologiya, gaz dinamikasi kabi fundamental fanlarni rivojlantirish yuzasidan keng qamrovli chora tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. Jumladan, matematik fanlarning ustuvor yoʻnalishlari, xususan, differensial tenglamalar va matematik fizika, dinamik sistemalar va optimal boshqaruv, amaliy matematika va matematik modellashtirish, matematik analiz va funksiyalar nazariyasi, ehtimollar nazariyasi va matematik statistika, algebra va geometriya boʻyicha xalqaro standartlar darajasida ilmiy tadqiqotlar olib borish, matematiklarning asosiy vazifalari va faoliyati sifatida belgilangan[1]. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, jumladan, integral tenglama yadrosining «nosingulyar» qismida nokarleman tipidagi siljishga ega boʻlgan va noxarakteristik qismida nofredgolm operatori boʻlgan Trikomining nostandart singulyar integral tenglamasini yechish algoritmini ishlab chiqish yuqorida qoʻyilgan topshiriqlarni amalga oshirishda katta ahamiyatga ega.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boʻyicha harakatlar strategiyasi toʻgʻrisida”gi Farmoni, 2019-yil 9-iyuldagi PQ-4387-son “Matematika ta’limi va

[1] Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 7-maydagi «Matematika sohasidagi ta`lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgrisida»gi PQ-4708-son qarori

fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi va 2020-yil 7-maydagi PQ-4708-son “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV “Matematika, mexanika va informatika” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Buziladigan giperbolik, elliptik va aralash tipdagi tenglamalar nazariyasining rivoji G.Darbu, F.Trikomi, E.Xolmgren va S.Gellerstedtlarning fundamental ishlaridan boshlanadi, $yu_{xx}+u_{yy}=0$ ko‘rinishdagi aralash tipdagi tenglama uchun birinchi fundamental tadqiqot esa italiyalik matematik F.Trikomi tomonidan olib borildi. O‘tgan davrda buziladigan va aralash tipdagi tenglamalar uchun chegaraviy va nolokal masalalarni o‘rganish bo‘yicha horijda E.Xolmgren, S.Gellerstedt, A.V.Bitsadze, A.M.Naxushev, I.Frankl, S.G.Mixlin, Yu.V.Devingtal, K.I.Babenko, M.M.Smirnov, V.F.Volkodavov, A.I.Kojanov, S.P.Pulkin, K.B.Sabitov, T.Sh.Kalmenov, N.Yu.Kapustin, E.I.Moiseyev, S.M.Ponamarev, A.P.Soldatov, R.S.Xayrullin va boshqalar tomonidan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borildi hamda muhim ilmiy natijalar olindi.

Mamlakatimiz olimlaridan M.S.Salaxiddinov, Sh.A.Alimov, T.D.Djurayev, S.Abdinazarov, A.K.Urinov va boshqalar aralash tipdagi tenglamalar nazariyasini takomillashtirish borasida salmoqli ilmiy natijalarga erishgan.

Buziladigan va aralash tipdagi tenglamalar uchun chegaraviy va nolokal masalalar nazariyasi turli yo‘nalishlarda rivojlantirildi, xususan, Trikomi tenglamasiga nisbatan umumiyroq tenglamalar uchun chegaraviy masalalar S.Gellerstedt, K.I.Babenko, V.F.Volkodavov, A.I.Kojanov, S.P.Pulkin, A.V.Bitsadze, M.S.Salaxiddinov, T.D.Djurayev, S.Abdinazarov, K.B.Sabitov va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan bo‘lsa, Trikomi masalasining turli modefikatsiyasi A.V.Bitsadze, A.M.Naxushev, M.M.Smirnov, S.Gellerstedt, F.N.Frankl, M.X.Ruziyev va boshqalar tomonidan o‘rganildi.

Shuningdek, Sh.A.Alimov, T.Sh.Kalmenov, N.Yu.Kapustin, E.I.Moiseyev, S.M.Ponamarev, M.S.Salaxiddinov, A.K.Urinov, M.A.Sadibekov va boshqalar tomonidan buziladigan va aralash tipdagi tenglamalar uchun spektral masalalar bayon qilingan va o‘rganilgan.

Shuni ta’kidlab o‘tish kerakki, hozirgi vaqtgacha olib borilgan tadqiqotlarda SKATT va SIBSKGTT uchun chegaraviy va ichki xarakteristikalarda lokal va nolokal shartlar kombinatsiyasidan iborat shartli masalalar kam tadqiq qilingan. Mazkur dissertatsiya xususiy hosilali differensial tenglamalar nazariyasining ushbu masalalarini tadqiq qilishga bag‘ishlangan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.

Dissertatsiya tadqiqoti Termiz davlat universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasidagi №F3-202009211 shifrli "Aralash tipdagi tenglamalar uchun xarakteristika va buzilish chizigida Frankl va Bitsadze-Samarskiy shartlari berilgan masalalar korrektligini noklassik singulyar integral tenglamalarga olib kelib o'rganish" fundamental tadqiqotlar loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi SKATT va SIBSKGTT uchun chegaraviy va ichki xarakteristikalarda lokal va nolokal shartlar berilgan masalalarning korrekt qo'yilganligini o'rganishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

SKATT uchun soha ichidagi xarakteristikada Frankl shartili masalaning yechimini yagonaligi va mavjudligi haqidagi teoremalarni isbotlash;

nostandart Trikomi integral tenglamasini Fredgolm integral tenglamasiga regulyarizatsiyalash algoritmini yaratish;

chegaralanmagan sohada SKATT uchun A.M.Naxushevning siljishli sharti ichki xarakteristikalarda berilgan masalasining bir qiymatli yechilishini isbotlash;

SIBSKGTT uchun xarakteristik to'rtburchakda chegaraviy xarakteristikaning biri ixtiyoriy ravishda ikki bo'lakka bo'linib, birinchi bo'lakda Trikomi sharti, ikkinchi bo'lakda va unga parallel ichki xarakteristikada Bitsadze-Samarskiy sharti berilgan masalaning korrektligini isbotlash.

Tadqiqotning obyekti SKATT va SIBSKGTT hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti. SKATT va SIBSKGTT uchun lokal va nolokal shartlar kombinatsiyasidan iborat noklassik shartlar bilan berilgan masalalar.

Tadqiqot usullari. Dissertatsiyada qo'yilgan masalalar yechimini yagonaligini isbotlashda ekstremum prinsipi, energiya integralidan foydalanilgan, masalalar yechimini mavjudligini isbotlashda regulyar va singulyar integral tenglamalar nazariyasidan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

chegaralangan aralash sohada SKATT uchun Frankl shartiga o'xshash shart ichki xarakteristikada berilgan noklassik masala bayon qilingan va masala yechimining yagonaligi A.V.Bitsadzening ekstremum prinsipiga o'xshash prinsip asosida, yechimning mavjudsligi esa integral tenglamalar nazariyasidan foydalanib isbotlangan;

Trikomining nostandart singulyar integral tenglamasini Fredgolmning ikkinchi tip integral tenglamasiga regulyarizatsiyalash algoritmi ishlab chiqilgan;

SKATT uchun chegaralanmagan sohaning ichki xarakteristikalarida A.M.Naxushevning siljishli sharti berilgan masalaning korrektligi ekstremum prinsipi hamda integral tenglamalar nazariyasidan foydalanib isbotlangan;

SIBSKGTT uchun xarakteristik to'rtburchakda Bitsadze-Samarskiy sharti chegaraviy xarakteristikaning bir qismida va unga parallel ichki xarakteristikada berilgan masalaning bir qiymatli yechilishi energiya integrallari va integral tenglamalar usullaridan foydalanib asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat: SKATT uchun Frankl va siljishli shartli masalalarning bir qiymatli yechimidan foydalanib. suyuqlik va gaz oqimiga oid matematik modellarni qurish va oʻrganish mumkinligi isbotlangan.

Siljishli va nofredgolm operatorli Trikomining singulyar integral tenglamasi yadrolarida sonli parametrlar ishtirok etgan hol uchun integral tenglamani regulyarizatsiyalash jarayoni uchun ishlab chiqilgan algoritmdan bu tipdagi nostandart tenglamalarni regulyarizatsiyalashda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarning ishonchliligi. Xususiy hosilali ikkinchi tartibli chiziqli differensial tenglamalar, kompleks oʻzgaruvchili funksiyalar va integral tenglamalar nazariyasi usullaridan foydalanib, deduktiv xulosalar qabul qilinganligi hamda teoremalar qat’iy va toʻliq isbotlanganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ushbu ishda olingan ilmiy natijalarda SKATT va SIBSKGTT dagi xususiy hosilali differensial tenglamalar nazariyasida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Dissertatsiya ishida olingan natijalarning SKATT va SIBSKGTT lar orqali ifodalanadigan fizik, texnik va biologik jarayonlarni oʻrganishda tatbiq etilishi mumkinligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot ishlarning joriy qilinishi. Elliptik-giperbolik va soha ichida buziladigan giperbolik tipdagi singulyar koeffitsiyentli tenglamalar uchun siljishli masalalarni tadqiq qilish boʻyicha olingan natijalar asosida:

nostandart singulyar integral tenglamalarni regulyarizatsiya qilish uchun ishlab chiqilgan metodlardan 2017-2020-yillarga moʻljallangan “Ikkinchi va yuqori tartibli aralash tipdagi tenglamalar uchun toʻgʻri va teskari masalalarning tadqiqi” mavzusidagi №OT-Ф4-88-sonli loyihada singulyar koeffitsientli aralash tipdagi tenglama uchun chegaraviy masalalarni yechishda foydalanilgan (Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti, 2023-yil 4-sentabrdagi 2/344-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, singulyar koeffitsientli Gellerstedt tenglamalari uchun ba’zi nolokal chegaraviy masalalarning bir qiymatli yechimini mavjudligini isbotlash imkonini bergan;

singulyar koeffitsiyentli aralash tipdagi tenglama uchun Bitsadze-Samarskiy tipidagi nolokal chegaraviy masalalarning korrektligini asoslash boʻyicha teoremalarning xulosalaridan 2020-2022-yillarga moʻljallangan AP008856594 “Daryo va kanallarda suv oqimlari dinamikasini tahlil qilish va nazorat qilishning intellektual tizimini ishlab chiqish” loyihasida kasr tartibli differensial tenglamalar uchun chegaraviy masalalarni yechishda foydalanilgan. (Qozogʻiston Respublikasi Fan va oliy ta’lim vazirligining Fan qoʻmitasi, 2023-yil 14-avgustdagi 01-07/248-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, aralashmaydigan suyuqliklar uchun chekli elementlarning fraktal-stoxastik filtrlash modellarini tahlil qilish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 9 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, jumladan 6 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan oʻtkazildi.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi boʻyicha jami 15 ta ilmiy ish chop etilgan, ulardan 5 tasi Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya qilingan nashrlarda, shulardan 2 tasi xorijiy va 3 tasi Respublika ilmiy jurnallarida nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish qismi, uchta bob, xulosa va foydalanilgan 82 nomdagi adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 118 bet.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan: tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, muammoning o‘rganilganlik darajasi keltirilgan, tadqiqot maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Elliptik-giperbolik tenglama uchun chegaraviy xarakteristikada Trikomi sharti to‘liq berilmagan va ichki xarakteristikada Frankl shartiga o‘xshash shart berilgan masala”** deb nomlangan birinchi bobida aralash tipdagi tenglama uchun chegaraviy xarakteristikada Trikomi sharti to‘liq berilmagan hamda ichki xarakteristikada va buzilish chizig‘ida Frankl sharti berilgan masala yechimining yagonaligi va mavjudligi haqidagi teoremalar isbotlangan.

Ushbu bobning birinchi paragrafida TF (Trikomi-Frankl) masalasining ta’rifi (qo‘yilishi) keltirilgan.

D soha z kompleks tekisligining chekli bir bog‘lamli sohasi bo‘lib, $y>0$ yarimtekislikda uchlari $A(-1,0)$, $B(1,0)$ nuqtalarda bo‘lgan, $\sigma_0 : x^2+4(m+2)^{-2}y^{m+2}=1$ normal chiziq bilan, $y<0$ yarimtekislikda esa

$$(signy)|y|^m u_{xx}+u_{yy}-(m/2y)u_y=0,\ m=const>0 \tag{1}$$

tenglamaning AC va BC xarakteristikalari bilan chegaralangan bo‘lsin (1.1-rasm).



1.1-rasm

D^+ va D^- orqali D sohaning mos ravishda $y>0$ va $y<0$ yarimtekisliklarda yotgan qismlarini, C_0 va C_1 orqali esa AC va BC xarakteristikalarning $E(c,0)$ nuqtadan chiquvchi xarakteristikalar bilan kesishish nuqtalarini belgilaymiz, C^* orqali EC_1 xarakteristikaning $E_1(c_1,0)$ nuqtadan chiquvchi xarakteristika bilan kesishish nuqtasini belgilaymiz, bu yerda c,c_1- o‘zgarmas sonlar bo‘lib, ular $I=(-1,1)$ intervaliga tegishli va $-1<c<c_1<1$.

Ushbu $p(x)=a_1x-b_1$ va $q(x)=a_2-b_2x$ chiziqli funksiyalar mos ravishda $[c,1]$ kesmani $[c,c_1]$ va $[c_1,1]$ kesmalarga akslantiradi va $p(c)=c$, $p(1)=c_1$, $q(c)=1$, $q(1)=c_1$ shartlarni qanoatlantiradi, bu yerda $a_1=(c_1-c)/(1-c)$, $b_1=c(c_1-1)/(1-c)$, $a_2=(1-cc_1)/(1-c)$, $b_2=(1-c_1)/(1-c)$, $a_1+b_2=1$, $a_2+b_1=1$.

TF (Trikomi Frankl) masalasi. D sohada quyidagi shartlarni qanoatlantiruvchi $u(x,y)\in C\left(\bar{D}\right)$ funksiya topilsin:

$u(x,y)$ funksiya $C^2\left(D^+\right)$ sinfga tegishli va D^+ sohada (1) tenglamani qanoatlantiradi;

$u(x,y)$ funksiya D^- sohada (1) tenglamaning R_1 sinfga tegishli umumlashgan yechimi bo‘ladi;

buzilish chizig‘i AB da ushbu ulanish sharti o‘rinli bo‘ladi:

$$\lim_{y\to-0}(-y)^{-m/2}(\partial u/\partial y)=\lim_{y\to+0}y^{-m/2}(\partial u/\partial y)\,,\quad x\in I\setminus\{c\}, \tag{2}$$

shu bilan birga bu limitlar $x=\pm1$, $x=c$ bo‘lganda birdan kichik tartibdagi maxsuslikka ega bo‘lshi mumkin;

ushbu tengliklar bajariladi:

$$u(x,y)\,|_{\sigma_0}=\varphi(x),\ \ x\in\bar{I}\,; \tag{3}$$

$$u(x,y)\,|_{AC_0}=\psi_0(x),\ \ x\in[-1,(c-1)/2]; \tag{4}$$

$$u[\theta^*(p(x))]-\mu u[\theta^*(q(x))]=\psi_1(x),\ \ x\in[c,1]; \tag{5}$$

$$u(p(x),0)-u(q(x),0)=f(x),\ \ x\in[c,1], \tag{6}$$

bu yerda $\theta^*(x_0)=(x_0+c)/2-i[(m+2)(x_0-c)/4]^{2/(m+2)}$ – EC_1 xarakteristikaning $M(x_0,0)$ nuqtadan chiquvchi xarakteristika bilan kesishish nuqtasining affiksi, $x_0\in(c,1)$, μ – berilgan haqiqiy son, $\mu\in(0,1)$, $\varphi(x),\psi_0(x),\psi_1(x),f(x)$ – berilgan yetarlicha silliq funksiyalar.

Qayd qilamizki, (5) va (6) shartlar mos ravishda ichki $EC_1=EC^*\cup C^*C_1$ xarakteristikada va buzilish chizig‘i $EB=(EE_1\cup E_1B)\subset AB$ da berilgan Frankl shartiga o‘xshash shartlardir.

Birinchi bobning ikkinchi paragrafida ekstremum prinsipi yordamida TF masalasi yechimining yagonaligi isbotlangan.

1-teorema. *Ushbu* $\psi_0(x)\equiv 0$, $\psi_1(x)\equiv 0$, $f(x)\equiv 0$ *shartlar bajarilganda, TF masalaning* $u(x,y)$ *yechimi* $\bar{D}^+$ *yopiq sohada o'zining eng katta musbat maksimum (EKMMAK) va eng kichik manfiy minimum (EKMMIN) qiymatlarini* σ_0 *normal chiziq nuqtalarida qabul qiladi.*

Natija. *TF masala yagona yechimga ega.*

Birinchi bobning uchinchi paragrafida TF masala yechimining mavjudligi o'rganilgan. Ushbu teorema o'rinli ekanligi isbotlangan.

2-teorema. *TF masalaning sonli parametrlari uchun*

$$\frac{4}{(1-\mu^2)}\sqrt{\frac{c_1-c}{1-c_1}}\left[\mu(1+b_2^*)+\left(\frac{1-c_1}{c_1-c}\right)(1+a_1^*)\right]<1, \tag{7}$$

tengsizlik o'rinli bo'lsa, bu yerda $a_1^*=cos(\theta\pi)-0{,}5a_1 sin(\theta\pi)$, $b_2^*=cos(\theta\pi)-0{,}5b_2 sin(\theta\pi)$, $\theta\pi=arctg[(1+\mu)/(1-\mu)]$, *u holda TF masala bir qiymatli yechimga ega.*

D^+ sohada Dirixle masalasi yechimining integral ifodasidan, D^- sohada esa shakli o'zgargan Koshi masalasi yechimini beruvchi Dalamber formulasidan foydalanib, (4)-(5) shartlarga asosan, *TF* masala bir qiymatli ravishda ushbu singulyar integral tenglamalar sistemasiga olib kelinadi:

$$\tau_0(x)-\frac{1}{\pi}\int_{-1}^{1}\left(\frac{1+x}{1+t}\right)\left(\frac{1}{t-x}-\frac{a}{1-(ax-b)(at-b)}\right)\tau_0(t)dt=$$

$$=\frac{a_1 b}{2\pi}\int_{-1}^{1}\frac{(1+x)\tau_1(t)dt}{p(bt+a)-ax+b}+(1+x)T[\tau_1]+(1+x)F_2(x),\ x\in I,\ x\in I, \tag{8}$$

$$(1-\mu)\tau_1(x)-\frac{a_1 b}{\pi}\int_{-1}^{1}\left(\frac{p(bx+a)-c}{p(bt+a)-c}\right)\frac{\tau_1(t)dt}{p(bt+a)-p(bx+a)}+$$

$$+\frac{\mu b b_2}{\pi}\int_{-1}^{1}\left(\frac{1-q(bx+a)}{1-q(bt+a)}\right)\left(\frac{1}{q(bt+a)-q(bx+a)}+\frac{1}{1-q(bx+a)q(bt+a)}\right)\tau_1(t)dt=$$

$$=\frac{a}{\pi}\int_{-1}^{1}\left(\frac{p(bx+a)-c}{at-b-c}\right)\frac{\tau_0(t)dt}{at-b-p(bx+a)}-$$

$$-\frac{b}{\pi}\int_{-1}^{1}\left[\left(\frac{p(bx+a)-c}{q(bt+a)-c}\right)\frac{b_2}{q(bt+a)-p(bx+a)}-\right.$$

$$\left.-\left(\frac{1-q(bx+a)}{1-p(bt+a)}\right)\frac{\mu a_1}{p(bt+a)-q(bx+a)}\right]\tau_1(t)dt+$$

$$+(1+x)R_0[\tau_0]+(1+x)R_1[\tau_1]+(1+x)E_2(x),\ x\in I, \tag{9}$$

bu yerda $\tau_0(x)=\tau(ax-b)$, $\tau_1(x)=\tau(q(bx+a)):T[\tau_1]$, $R_0[\tau_0]$, $R_1[\tau_1]$ – regulyar operatorlar, $F_2(x)$, $E_2(x)$ – ma'lum funksiyalar, $b_2+a_1=1$, $a_1+b_2=1$, $a+b=1$, $a-b=c$, $a=(1+c)/2$, $b=(1-c)/2$.

(8) tenglama Trikomining noklassik singulyar integral tenglamasidir, chunki u ikkita maxsuslikka ega, ya'ni Trikomi operatorining nosingulyar qismi $ax-b$, $at-b$ ko'rinishdagi nokarleman siljishlarga ega.

(8) tenglamaning o'ng qismidagi birinchi integral operator regulyar emas, chunki bu operatorning yadrosi $(x,t)=(1,-1)$ nuqtada birinchi tartibli yakkalangan maxsuslikka ega (shuning uchun ham alohida ajratib yozilgan).

3-teorema. *Agar $g_0(x)$ $x\in(-1,1)$ da Gyolder shartini qanoatlantirsa va $g_0(x)\in L_p(-1,1)$, $p>1$ bo'lsa, u holda (8) tenglamaning $(1+x)^{-1}\tau_0(x)$ funksiya $x=-1$ nuqtada chegaralanmagan va $x=1$ da chegaralangan bo'lishi mumkin bo'lgan $h(1)$ sinfdagi yechimi ushbu formula orqali ifodalanadi:*

$$\tau_0(x)=\frac{g_0(x)}{2}+\frac{1}{2\pi}\int_{-1}^{1}\left(\frac{1-x}{1-t}\right)^{1/4}\left(\frac{1+x}{1+t}\right)^{1/2}\left(\frac{1-c(ax-b)}{1-c(at-b)}\right)^{1/4}\times$$

$$\times\left(\frac{1}{t-x}-\frac{a}{1-(ax-b)(at-b)}\right)g_0(t)dt,\ x\in I, \tag{10}$$

bu yerda

$$g_0(x)=\frac{a_1b}{\pi(1+c_1)}\int_{-1}^{1}\frac{(1+x)\tau_1(t)dt}{b_0t-a_0x+1}+(1+x)T[\tau_1]+(1+x)F_2(x),\ x\in(-1,1), \tag{11}$$

$a_0=(1+c)/(1+c_1)$, $b_0=(c_1-c)/(1+c_1)$, $a_0+b_0=1$.

Endi (11) tenglikdan $g_0(x)$ uchun ifodani (10) tenglikka qo'yib, murakkab bo'lmagan hisoblashlardan so'ng ushbu tenglikka ega bo'lamiz:

$$\tau_0(x)=\frac{a_0^{-1/4}b_0^{-1/4}a_1b}{\pi(1+c_1)}(1+x)^{1/2}\int_{-1}^{1}\left(\frac{1-x}{1+s}\right)^{1/4}\frac{\tau_1(s)ds}{b_0s-a_0x+1}+$$

$$+(1+x)^{1/2}T_2[\tau_1]+(1+x)F_2(x),\ x\in I. \tag{12}$$

(12) yechim shu bilan xarakterliki, u $\tau_0(x)$ga nisbatan yechilgan. Bu holat (9) tenglikdan $\tau_0(x)$ni yo'qotishga imkon beradi. (12) tenglikdan $\tau_0(x)$ uchun ifodani (9) tenglikka qo'yib, murakkab bo'lmagan hisoblashlardan so'ng ushbu tenglikka kelamiz:

$$\rho(x)-\frac{1}{\pi}\int_{-1}^{1}\left(\frac{\alpha}{t-x}-\frac{\beta b_3}{1-(b_3x-a_3)(b_3t-a_3)}\right)\rho(t)dt=(\alpha-\beta)g\left(\alpha,\beta;x\right),\ x\in I, \tag{13}$$

bu yerda $\rho(x)=(1+x)^{-1}\tau_1(x)$, $\alpha=(1+\mu)/(1-\mu)$, $\beta=\mu/(1-\mu)$, $\alpha=1+2\beta$, $g\left(\alpha,\beta;x\right)$ funksiya esa $g_0\left(x\right)$ da μ sonli parametrni $\beta/(\alpha-\beta)$ ga almashtirish natijasida hosil qilinadi.

$$g(x)=\frac{1}{\pi}\int_{-1}^{1}\left(\frac{b_2}{b_2t+a_1x-1}+\frac{\mu a_1}{a_1t+b_2x-1}\right)\rho(t)dt+R_3[\rho]-E_3(x),\quad x\in I\,. \qquad (14)$$

Ko‘rishimiz mumkinki, (13) tenglama $\alpha\neq 1$, $\beta\neq 1$ bo‘lgani uchun ilgari o‘rganilmagan nostandart singulyar integral tenglamadir.

4-teorema. *Agar $g(\alpha,\beta;x)$ funksiya $x\in(-1,1)$ intervalda Gyolder shartini qanoatlantirsa va $g(\alpha,\beta;x)\in L_p(-1,1)$, $p>1$ bo‘lsa, u holda (13) tenglamaning $H(-1,1)$ funksiyalar sinfiga tegishli yechimi, bu yerda $\rho(x)$ yechim $x=-1$ da chegaralanmagan bo‘lishi mumkin va $x=1$ da chegaralangan, ya’ni $h(1)$ sinfga tegishli yechimi ushbu formula bilan ifodalanadi:*

$$\rho(x)=\frac{\alpha-\beta}{1+\alpha^2}g(\alpha,\beta;x)+\frac{\alpha-\beta}{\pi(1+\alpha^2)}\int_{-1}^{1}\left(\left(\frac{1+t}{1+x}\right)^2\left(\frac{1-x}{1-t}\right)\frac{(1-c_1(b_3x-a_3))}{(1-c_1(b_3t-a_3))}\right)^{\theta}\times$$

$$\times\left(\frac{\alpha}{t-x}g(\alpha,\beta;x)+\frac{b_3\beta((1+\alpha i)/(1+\beta i))}{1-(b_3x-a_3)(b_3t-a_3)}g(\alpha,\beta;x)\right)dt,\quad x\in I\,, \qquad (15)$$

bu yerda $\theta\pi=arctg\alpha,\,0<\theta<1/2$, $\rho(x)=(1+x)^{-1}\tau_1(x)$.

(11) dagi $g_0(x)$ ni (10) ga va (14) dagi $g(x)$ ni (15) ga qo‘yib, murakkab bo‘lmagan almashtirishlardan so‘ng ushbu Viner-Xopf

$$\rho(y)=\frac{1}{\sqrt{2\pi}}\int_{0}^{+\infty}K_0(y-s)\rho(s)ds+R_4[\rho] \qquad (16)$$

integral tenglamasini hosil qilamiz, bu yerda $K_0(y-s)$ – ma’lum yadro, ya’ni $K_0(x)$ yadro uzluksiz differensiallanuvchi hamda cheksizlikda ko‘rsatkichkli tartibda kamayadi, $R_4[\rho]$ – regulyar operator bo‘lib, u ham cheksizlikda ko‘rsatkichli tartibda kamayadi.

Yaxshi ma’lumki, o‘rama tipidagi integral tenglamalar uchun Fredgolm teoremalari faqat bir holdagina, yani bu tenglamalarning indeksi nolga teng bo‘lgandagina o‘rinli bo‘ladi. Shuning uchun dastlab (16) tenglamada Furye almashtirishi bajariib, keyin esa indeksi nolga teng bo‘lishi isbotlanib, (16) tenglama Fredgolmning ikkinchi tur integral tenglamasiga bir qiymatli reduksiyalanishi isbotlangan. Bu tenglamaning bir qiymatli yechimini mavjudligi TF masala yechimining yagonaligidan kelib chiqadi.

Dissertasiyaning **“Singulyar koeffitsiyentli Gellerstedt tenglamasi uchun ichki xarakteristikalarda siljishli shartli masala”** deb nomlangan II bobida chegaralanmagan sohada singulyar koeffisiyentli Gellerstedt tenglamasi uchun ichki xarakteristikalarda siljishli shart berilgan, buzilish chizig‘ida esa Frankl shartiga o‘xshash shart berilgan masala yechimining yagonaligi va mavjudligi haqidagi teoremalar isbotlangan.

2.1-paragrafda SV masalaning ta’rifi keltirilgan. $D = D^+ \cup D^- \cup AB$ soha – z kompleks tekislikning chegaralanmagan sohasi bo‘lib, bu yerda D^+ – $y > 0$ yarimtekislik, $D^- - y < 0$ yarimtekislikdagi chekli soha bo‘lib, u

$$(signy)|y|^m u_{xx} + u_{yy} + \frac{\alpha_0}{|y|^{1-m/2}} u_x + \frac{\beta_0}{y} u_y = 0 \qquad (17)$$

tenglamaning $A(-1,0)$ va $B(1,0)$ nuqtalaridan chiquvchi xarakteristikalari hamda $AB = \{(x,y): -1 < x < 1,\ y = 0\}$ kesma bilan chegaralangan (2.1-rasm).

(17) tenglamada $m,$ α_0 va β_0 parametrlar ushbu

$$m > 0, |\alpha_0| < (m+2)/2, -m/2 < \beta_0 < 1$$

shartlarni qanoatlantiruvchi haqiqiy sonlar deb faraz qilinadi.

Ushbu $p(x) = ax - b$ va $q(x) = a - bx$ chiziqli diffeomorfizmlar $[-1,1]$ kesma nuqtalarini mos ravishda $[-1,c]$ va $[c,1]$ kesmalarga akslantirsin, bu yerda $a = (1+c)/2,$ $b = (1-c)/2,$ shu bilan birga $p(-1) = -1,$ $p(1) = c$, $q(-1) = 1,$ $q(1) = c$.



2.1-rasm

Ma’lumki, siljishli masalalarda chegaraviy shartlar AC va BC xarakteristikalarda berilar edi. Ushbu bobda siljishli shartlar ichki EC_0 va EC_1 xarakteristikalarda berilgan masalaning korrektligi o‘rganilgan.

SV masalasi. D sohada ushbu shartlarni qanoatlantiruvchi $u(x,y)$ funksiya topilsin:

$u(x,y)$ funksiya D chegaralanmagan sohaning ixtiyoriy $\bar{D}_R$ qismida uzluksiz;

$u(x,y)$ funksiya $C^2(D^+)$ sinfga tegishli va bu sohada (17) tenglamani qanoatlantiradi;

$u(x,y)$ funksiya $D^- \setminus (EC_0 \cup EC_1)$ sohada R_1 sinfga tegishli umumlashgan yechim;

AB buzilish chizig‘ida ushbu ulanish sharti bajariladi:

$$\lim_{y\to-0}(-y)^{\beta_0}(\partial u/\partial y)=\lim_{y\to+0}y^{\beta_0}(\partial u/\partial y),\quad x\in(-1,c)\cup(c,1), \tag{18}$$

shu bilan birga bu limitlar $x=\pm1, x=c$ nuqtalarda $1-\alpha-\beta$ dan kichik tartibdagi maxsuslikka ega bo‘lishi mumkin, bu yerda $\alpha=(m+2(\beta_0+\alpha_0))/(2(m+2))$, $\beta=(m+2(\beta_0-\alpha_0))/(2(m+2))$, $\alpha>0$, $\beta>0$, $\alpha+\beta<1$;

ushbu tenglik bajariladi:

$$\lim_{R\to+\infty}u(x,y)=0,\ y\geqslant 0, \tag{19}$$

bu yerda $R^2=x^2+4(m+2)^{-2}y^{m+2}$;

$u(x,y)$ ushbu chegaraviy shartlarni qanoatlantiradi:

$$u(x,y)|_{y=0}=\tau_i(x),\ \forall\ x\in\overline{\ell_i}\ ,\ i=1,2; \tag{20}$$

$$a(x)(1-x)^{\alpha}D_{x,1}^{1-\beta}u\left[\theta_0^*(q(x))\right]+b(x)(1-x)^{\beta}D_{x,1}^{1-\alpha}u\left[\theta_1^*(p(x))\right]=\psi(x),\ x\in\ell, \tag{21}$$

$$u(p(x),0)-u(q(x),0)=f(x),\quad x\in\ell, \tag{22}$$

bu yerda $\ell=(-1,1)$, $\ell_1=(-\infty,-1)$, $\ell_2=(1,+\infty)$. $\theta_0^*(q(x))$, $\theta_1^*(p(x))$ – mos ravishda EC_1 va EC_0 ichki xarakteristikalarning $(q(x_0),0)$, $(p(x_0),0)$, $x_0\in\overline{\ell}$, nuqtalardan chiquvchi xarakteristikalar bilan kesishish nuqtalari; $\tau_1(x),\tau_2(x)$, $a(x)$, $b(x)$, $\psi(x)$, $f(x)$ – berilgan yetarlicha silliq funksiyalar.

Shuni ta’kidlash kerakki, (21) shart ichki EC_0 va EC_1 xarakteristikalarda berilgan siljishli shart, (22) esa $y=0$ o‘qning $[-1,1]$ kesmasida berilgan lokal siljishli shartdir.

2.2-paragrafda SV masala yechimini yagonaligi isbotlangan. D^- sohada (17) tenglama uchun shakli o‘zgargan Koshi masalasining yechimini beruvchi Darbu formulasiga asosan, (24) shartdan ushbu munosabatni hosil qilamiz:

$$b^{1-\alpha-\beta}\Gamma(1-\beta)a(x)\nu(q(x))+a^{1-\alpha-\beta}\Gamma(1-\alpha)b(x)\nu(p(x))=$$

$$=\gamma\left\{b^{1-\alpha-\beta}\Gamma(\alpha)a(x)D_{c,q(x)}^{1-\alpha-\beta}\tau(x)+a^{1-\alpha-\beta}\Gamma(\beta)b(x)D_{p(x),c}^{1-\alpha-\beta}\tau(x)\right\}+\Psi_1(x),\ \ x\in\ell, \tag{23}$$

bu yerda $\nu(x)=\lim_{y\to-0}(-y)^{\beta_0}(\partial u/\partial y)$.

(23) munosabat D^- yopiq sohadan ℓ kesmaga olib kelingan $\tau(x)$ va $\nu(x)$ noma’lum funksiyalar o‘rtasidagi funksional munosabatdir. Ushbu teorema isbotlangan:

5-teorema *(A.B.Bitsadzening ekstremum prinspiga o‘xshash prinsip). Ushbu* $\tau_1(x)\equiv0, \tau_2(x)\equiv0, \psi_1(x)\equiv0, f_1(x)\equiv0$ *tengliklar o‘rinli bo‘lganda*

$$a(x)\geqslant0,\ b(x)\geqslant0,\ \forall\ x\in\overline{\ell} \tag{24}$$

shartlar bajarilsa, SV masalasining $u(x,y)$ yechimi $\bar{D}_R^+$ sohada o'zining eng katta musbat maksimum (EKMMAK) va eng kichik manfiy minimum (EKMMIN) qiymatlarini faqat σ_R normal chiziq nuqtalarida qabul qiladi.

6-teorema. *SV masala (24) shart bajarilganda bittadan ortiq yechimga ega emas.*

2.3-paragraf SV masala yechimining mavjudligini isbotlashga bag'ishlangan.

$y>0$ yarimtekislikda Dirixle masalasining yechimini beruvchi formuladan foydalanib, ushbu munosabatni hosil qilamiz:

$$\nu(x) = -k_2(1-\beta_0)\big((m+2)/2\big)\times$$

$$\times\int_{-1}^{1}\tau'(t)\left[(x-t)\,|x-t|^{2a_0-2}\,exp\left(-2b_0 arcsin\frac{t-x}{|t-x|}\right)\right]dt+\Phi(x),\ x\in(-1,1), \qquad (25)$$

bu yerda $a_0=(m+2\beta_0)/2(m+2)$, $b_0=-\alpha_0/(m+2)$, $k_2, \Phi(x)$ – ma'lum kattaliklar.

(25) munosabat $\tau(x)$ va $\nu(x)$ noma'lum funksiyalar o'rtasidagi D^+ sohada $y=0$ o'qning $\ell=(-1,1)$ intervaliga olib kelingan asosiy funksional munosabatdir.

Endi $\nu(x)$ uchun ifodani (25) dan (23) ga qo'yib, murakkab bo'lmagan almashtirishlardan so'ng, ushbu singulyar integral tenglamani hosil qilamiz:

$$A(x)\tau_1(x)+B(x)\int_{-1}^{1}\left(\frac{1-x}{1-t}\right)^{1-2a_0}\frac{\tau_1(t)dt}{t-x}=g_0(x), \qquad (26)$$

bu yerda $A(x)$, $B(x)$ – ma'lum funksiyalar;

$$g_0(x)=a_1(x)\int_{-1}^{1}\left(\frac{1-x}{1-t}\right)^{1-2a_0}\frac{\tau_1(t)dt}{at+bx-1}+b_1(x)\int_{-1}^{1}\left(\frac{1-x}{1-t}\right)^{1-2a_0}\frac{\tau_1(t)dt}{bt+ax-1}+$$

$$+\int_{-1}^{1}R(x,t)\tau_1(t)dt+F(x),\ x\in\bar{\ell}, \qquad (27)$$

bu yerda a_1, b_1 – ma'lum miqdorlar, $R(x,t)$, $F(x)$ esa ma'lum funksiyalar.

7-teorema. *Agar $g_0(x)$ funksiya $x\in(-1,1)$ bo'lganda Gyolder shartini qanoatlantirsa va $L_p(-1,1)$, $p>1$ sinfga tegishli bo'lsa, u holda (26) tenglama yechimi $(1-x)^{2a_0-1}\tau_1(x)$ funksiya $(-1,1)$ intervalning chap $x=-1$ chegarasida chegaralangan va $x=1$ o'ng chegarasida chegaralanmagan bo'lishi mumkin bo'lgan funksiyalar sinfi $H(-1,1)$ da*

$$\tau_1(x)=\frac{A(x)g_0(x)}{A^2(x)+\pi^2B^2(x)}-$$

$$-\frac{B(x)}{A^2(x)+\pi B^2(x)}\int_{-1}^{1}\left(\frac{1+x}{1+t}\right)^{\delta_0}\left(\frac{1-x}{1-t}\right)^{1-2a_0-\delta_1}\frac{\delta(x)}{\delta(t)}\frac{A(x)+i\pi B(x)}{A(t)+i\pi B(t)}\frac{g_0(t)dt}{t-x},x\in\bar{\ell} \quad (28)$$

formula orqali ifodalanadi, bu yerda $\tau_1(x)=\tau(q(x))$.

Endi (27) dan $g_0(x)$ uchun ifodani (28) ga qo‘yib, murakkab bo‘lmagan hisoblashlardan so‘ng, ushbu tenglamaga kelamiz:

$$\rho(y)=\frac{1}{\sqrt{2\pi}}\int_0^{+\infty}K_0(y-t)\rho(t)dt+H_3[\rho]+F_2(y),\ \ y\in[0,+\infty)\,, \tag{29}$$

bu yerda $\rho(y)=e^{(0.5-2a_0)y}\tau_1(1-2e^{-y})$,

$$K_0(x)=\frac{\sqrt{2\pi}\pi}{b\sin(\delta_1\pi)}\left[B_1k^{\delta_1}\frac{e^{\delta_1 x}}{ke^{x/2}+e^{-x/2}}+B_2k^{-\delta_1}\frac{e^{\delta_1 x}}{e^{x/2}+ke^{-x/2}}\right], \tag{30}$$

$\beta_0>(2-m)/4$, $0<\delta_1<1/2$, $k=a/b$, $2a_0=\alpha+\beta=\dfrac{m+2\beta_0}{m+2}\in(0,1)$; $H_3[\rho]$ – regulyar operator, $F_2(y)$ – ma’lum funksiya.

(29) tenglama Viner-Xopf integral tenglamasidan iborat. (30) tenglikda $0<\delta_1<1/2$ bo‘lganligi uchun $K_0(x)$ funksiya cheksizlikda ko‘rsatkichli tartibda kamayuvchi bo‘ladi, shu bilan birga $K_0(x)\in C^1[0,+\infty)$. U holda $K_0(x)\in L_2\cap H_\alpha=0$.

Ushbu

$$\left|\left(2\pi\,|\,A(1)+\pi B(1)\,||\,a_1(1)+b_1(1)\,|\right)/\left(\sqrt{1-c^2}A^2(1)\right)\right|<1 \tag{31}$$

shart bajarilganda (29) integral tenglamaning indeksi nolga teng. Natijada (29) tenglama Fredgolmning ikkinchi tur integral tenglamasiga reduksiyalanadi, bu tenglama esa SV masalasi yechimining yagonaligiga ko‘ra bir qiymatli yechimga ega. Shu tariqa quyidagi teorema isbotlandi:

8-teorema. *SV masalaning yechimi (24), (30) hamda* $0.5-2a_0<0(\beta_0>(2-m)/4)$ *shartlar bajarilganda mavjud.*

Dissertasiyaning **“Soha ichida buziluvchan singulyar koeffitsiyentli giperbolik tipdagi tenglama uchun lokal va nolokal shartli masala”** deb nomlangan uchinchi bobida soha ichidagi buziluvchan singulyar koeffitsiyentli giperbolik tipdagi tenglama uchun chegaraviy xarakteristikaning qismlarida lokal va nolokal shartlar berilgan masala yechimining yagonaligi va mavjudligi haqidagi teoremalar isbotiga bag‘ishlangan.

3.1-paragrafida A masalaning ta’rifi berilgan. Ω - z kompleks tekisligining xarakteristik to‘rtburchagi bo‘lib, u soha ichida buziluvchan

$$-|y|^m u_{xx}+u_{yy}+\alpha_0|y|^{(m-2)/2}u_x+(\beta_0/y)u_y=0 \tag{32}$$

tenglamaning $A=A(-1,0)$ va $B=B(1,0)$ nuqtalardan chiquvchi

$$\left.\begin{matrix}AC_1\\BC_1\end{matrix}\right\}: x\mp\frac{2}{m+2}y^{(m+2)/2}=\mp1,\quad \text{agar}\quad y>0\quad \text{bo‘lsa,}$$

$$\left.\begin{matrix}AC_2\\BC_2\end{matrix}\right\}: x\mp\frac{2}{m+2}(-y)^{(m+2)/2}=\mp1,\quad \text{agar}\quad y<0\quad \text{bo‘lsa,}$$

xarakteristikalari bilan chegaralangan bo‘lsin, bu yerda m, α_0, β_0 o‘zgarmas sonlar bo‘lib, ular ushbu tengsizliklarni qanoatlantiradi: $m>0$, $-m/2<\beta_0<1$, $-(m+2)/2<\alpha_0<(m+2)/2$ (3.1-rasm).

Ω_1 va Ω_2 orqali Ω sohaning mos ravishda $y>0$ va $y<0$ yarimtekisliklarda yotuvchi qismlarini belgilaymiz, A_0 va B_0 orqali esa mos ravishda AC_2 va BC_2 xarakteristikalarning $E(c,0)$ nuqtadan chiquvchi xarakteristukalar bilan kesishish nuqtalarini belgilaymiz, bu yerda $c\in I=(-1,1)$.



3.1-rasm

Ushbu bob (35) tenglama uchun Ω sohada qo‘yilgan masalaning korrektligini o‘rganishga bag‘ishlangan, bunda Ω_2 sohadagi AC_2 xarakteristika ixtiyoriy ravishda ikki qismga, ya’ni AA_0 va A_0C_2 qismlarga bo‘linadi va birinchi $AA_0\subset AC_2$ qismda lokal shart, ikkinchi $A_0C_2\subset AC_2$ qismda va unga parallel ichki EB_0 xarakteristikada Bitsadze-Samarskiyning nolokal sharti, hamda Ω_1 sohaning BC_1 xarakteristikasida izlanayotgan yechimning qiymati berilgan.

A masala. Ω sohada quyidagi shartlarni qanoatlantiruvchi $u(x,y)\in C(\bar{\Omega})$ funksiya topilsin;

$u(x,y)$ funksiya Ω_1 va Ω_2 sohalarida R_1 sinfdagi umumlashgan yechim;

AB kesmada ushbu ulanish sharti bajariladi:

$$\lim_{y\to-0}(-y)^{\beta_0}\frac{\partial u}{\partial y}=\lim_{y\to+0}y^{\beta_0}\frac{\partial u}{\partial y},\quad x\in I\setminus\{c\}, \tag{33}$$

shu bilan birga bu limitlar $x=\pm1, x=c$ nuqtalarda $1-\alpha-\beta$ dan kichik tartibdagi maxsuslikka ega bo‘lishi mumkin, bu yerda

$$\left.\begin{matrix}\alpha\\ \beta\end{matrix}\right\}=\frac{m+2(\beta_0\pm\alpha_0)}{2(m+2)},\ 0<\alpha,\ \beta<1,\ \alpha+\beta<1;$$

ushbu chegaraviy shartlar bajarilsin:

$$u(x,y)|_{BC_1} = \psi_1(x), \quad 0 \leqslant x \leqslant 1; \tag{34}$$

$$u(x,y)|_{AA_0} = \psi_2(x), \quad -1 \leqslant x \leqslant (c-1)/2; \tag{35}$$

$$u[\theta(x_0)] = \mu u[\theta^*(x_0)] + \rho(x), \quad c \leqslant x \leqslant 1, \tag{36}$$

bu yerda μ – manfiy o‘zgarmas haqiqiy son, $\theta(x_0),(\theta^*(x_0))$ lar $A_0C_2(EB_0)$ xarakteristikaning $M(x_0,0)$ nuqtadan chiquvchi xarakteristika bilan kesishish nuqtalarining affiksi, $x_0 \in [c,1]$; $\psi_1(x),\ \psi_2(x),\ \rho(x)$ – berilgan funksiyalar o‘zlarining aniqlanish sohasining yopig‘ida uzluksiz, shu bilan birga $\psi_1(1)=0,\ \psi_2(-1)=0.$

Ta’kidlaymizki, (34),(35) shartlar lokal shartlar bo‘lib, ular BC_1 va $AA_0 \subset AC_2$ xarakteristikalarda berilgan, (36) shart esa Bitsadze-Samarskiy sharti bo‘lib, u $A_0C_2 \in AC_2$ chegaraviy xarakteristikada va unga parallel ichki EB_0 xarakteristikada berilgan.

3.2-paragrafda **A masala** yechimining yagonaligi isbotlangan.

9-teorema. *A masalasi bittadan ortiq yechimga ega bo‘lishi mumkin emas.*

Ushbu teoremani isbotlashda xarakteristik uchburchaklarda shakli o‘zgargan Koshi masalasi yechimini beruvchi Darbu formulasidan foydalanib, mos ravishda (34), (35) va (36) shartlarga asosan, ushbu funksional munosabatlarni hosil qilamiz:

$$\gamma_1\Gamma(\beta)\left(\frac{1-x}{2}\right)^{1-\alpha-\beta} D_{x,1}^{\alpha-1}(1-x)^{\alpha-1}\tau(x) -$$

$$-\gamma_2\left(\frac{m+2}{2}\right)^{1-\alpha-\beta}\Gamma(1-\alpha)D_{x,1}^{\alpha-1}(1-x)^{-\beta}\nu(x) = \psi_1\left(\frac{1+x}{2}\right) x \in (-1,1), \tag{37}$$

$$\nu(x) = \gamma D_{-1,x}^{1-\alpha-\beta}\tau(x) + \Psi_2(x),\ x \in (-1,c), \tag{38}$$

$$\nu(x) = \gamma\omega(x)\left[(x-c)^\alpha D_{-1,x}^{1-\alpha-\beta}\tau(x) - \mu(1+x)^\alpha D_{c,x}^{1-\alpha-\beta}\tau(x)\right] + \Psi_3(x),\ x \in (c,1), \tag{39}$$

bu yerda $\omega(x) = \left[(x-c)^\alpha - \mu(1+x)^\alpha\right]^{-1}$.

8-teorema (37),(38) va (39) munosabatlardan foydalanib, energiya integrali metodi yordamida isbotlanadi.

3.3-paragrafda *A* masalasi yechimining mavjudligi isbotlangan.

10-teorema. *Agar ushbu shartlar* $\rho(x) \in C[c,1] \cap C^{3,\delta}(c,1)$, $\psi_1(x) \in C[0,1] \cap$ $\cap C^{3,\delta}(0,1)$, $\psi_2(x) \in C[-1,(c-1)/2] \cap C^{3,\delta}(-1,(c-1)/2)$, $\delta = const > 0$ *bajarilsa, u holda A masalasining yechimi mavjud.*

(37) va (38) munosabatlardan foydalanib, standart hisoblashlarni bajarib va $\nu_0(x) = \nu(ax-b)$, $\nu_1(x) = \nu(bx+a)$ belgilashlarni kiritib, $\nu_0(x)$ ga nisbatan singulyar integral tenglamani ushbu ko‘rinishda yozib olamiz:

$$\nu_0(x) + \lambda\int_{-1}^{1}\left(\frac{1+t}{1+x}\right)^{2\theta}\frac{\nu_0(t)dt}{t-x} = g_0(x), \tag{40}$$

bu yerda $\theta=(1-\alpha-\beta)/2$,

$$g_0(x)=-\lambda b\int_{-1}^{1}\left(\frac{1-bs+a}{a(1+x)}\right)^{2\theta}\frac{\nu_1(s)ds}{bs-ax+1}+\Psi_{21}(ax-b). \tag{41}$$

11-teorema. *(43) tenglamaning* $(-1,1)$ *intervalda Gyolder sinfiga tegishli bo'lgan, hamda* $(1+x)^{2\theta}\nu_0(x)$ *funksiya* $x=-1$ *nuqtada chegaralangan va* $x=1$ *nuqtada birdan kichik tartibdagi maxsuslikka ega bo'lgan, ya'ni* $h(-1)$ *sinfga tegishli yechimi ushbu ko'rinishda bo'ladi:*

$$\nu_0(x)=\frac{g_0(x)}{1+\lambda^2\pi^2}-\frac{\lambda}{1+\lambda^2\pi^2}\int_{-1}^{1}\left(\frac{1-t^2}{1-x^2}\right)^{\theta}\frac{g_0(t)dt}{t-x}. \tag{42}$$

Endi $g_0(x)$ uchun (41) dagi ifodani (42) ga qo'yib, ushbuni hosil qilamiz:

$$\nu_0(x)=-\frac{\lambda^2 b^{1+\theta}\pi}{(1+\lambda^2\pi^2)\sin(\theta\pi)}\int_{-1}^{1}\left(\frac{(1+bt+a)^2}{a^2(1+x)(1+a-bt)}\right)^{\theta}\times$$

$$\times\left(\frac{1+t}{1-x}\right)^{\theta}\frac{\nu_1(t)dt}{bt-ax+1}+\Psi_{22}(x),\quad x\in(-1,1). \tag{43}$$

(43) tenglama $\nu_0(x)$ va $\nu_1(x)$ noma'lum funksiyalar uchun tenglamalar sistemasining birinchi tenglamasi hisoblanadi. Shuni alohida takidlaymizki, (43) tenglama noma'lum funksiya $\nu_0(x)$ ga nisbatan yechilgan. Yuqoridagiga o'xshash, (39) munosabatlardan foydalanib, ushbu tenglamaga ega bo'lamiz:

$$\nu_1(x)+\lambda\int_{-1}^{1}\left(\frac{1+s}{1+x}\right)^{1-\alpha-\beta}\frac{\nu_1(s)ds}{s-x}=H_1[\nu_1]+\Psi_{31}(x)-$$

$$-\lambda(b(1+x))^{\alpha}\omega(bx+a)\int_{-1}^{1}\left(\frac{a(1+s)}{1+bx+a}\right)^{1-\alpha-\beta}\frac{a\nu_0(s)ds}{as-bx-1},\ x\in(-1,1). \tag{44}$$

(44) tenglama $\nu_0(x)$ va $\nu_1(x)$ noma'lum funksiyalar uchun tenglamalar sistemasining ikkinchi tenglamasi hisoblanadi. (43) ga asosan, (44) dan $\nu_0(x)$ ni yo'qotib, standart hisoblashlardan so'ng ushbu singulyar integral tenglamani hosil qilamiz:

$$\nu_1(x)+\lambda\int_{-1}^{1}\left(\frac{1+t}{1+x}\right)^{2\theta}\frac{\nu_1(t)dt}{t-x}=H_2[\nu_1]+\Psi_{32},\quad x\in(-1,1), \tag{45}$$

bu yerda $H_2[\nu_1]$ – regulyar operator.

(45) singulyar integral tenglama yechimini $(-1,1)$ intervalda Gyolder sinfiga tegishli bo'lgan va $(1+x)^{2\theta}\nu_1(x)$ funksiya $x=-1$ nuqta atrofida chegaralangan va

$x=1$ nuqta atrofida chegaralanmagan bo‘lishi mumkin bo‘lgan, ya’ni $h(-1)$ sinfida izlaymiz.

$1+\lambda^2\pi^2 \neq 0$ bo‘lgani uchun (45) tenglama normal tipdagi tenglama bo‘ladi va bayon etilgan yechimlar sinfida uning indeksi 0 ga teng.

Shunday qilib, (45) tenglama bir qiymatli ravishda Fredgolmning ikkinchi tur integral tenglamasiga reduksiyalanadi va uning bir qiymatli yechilishi A masala yechimining yagonaligidan kelib chiqadi.

XULOSA

Dissertasiya ishi elliptiko-giperbolik va soha ichida buziladigan giperbolik tipdagi singulyar koeffitsiyentli tenglamalar uchun chegaraviy va ichki xarakteristikalarda lokal va nolokal shartli masalalarni o‘rganishga bag‘ishlangan.

Birinchi bobda aralash tipdagi singulyar koeffisientli tenglama uchun chegaraviy xarakteristikada Trikomi sharti to‘liq berilmagan va ichki xarakteristikada Frankl shartiga o‘xshash shart berilgan masala yechimining yagonaligi va mavjudligi haqidagi teoremalar isbotlangan. Ikkinchi bobda aralash tipdagi ikkita kichik hadli singulyar koeffisiyentli tenglama uchun ichki xarakteristikada siljishli shart berilgan masala o‘rganilgan. Uchinchi bobda giperbolik tipdagi tenglama uchun lokal va nolokal shartli masala o‘rganilgan bo‘lib, bu yerda chegaraviy xarakteristika ixtiyoriy ravishda ikki bo‘lakka bo‘linib, birinchi bo‘lakda lokal shart (Trikomi sharti), ikkinchi bo‘lak va unga parallel ichki xarakteristikada Bitsadze-Samarskiy sharti berilgan masala tadqiq etilgan.

Aralash tipdagi tenglamalar uchun ta’riflangan masalalar yechimining yagonaligi ekstremum prinsipi yordamida isbotlangan. Soha ichida buziladigan giperbolik tipdagi tenglama uchun Bitsadze-Samarskiy masalasi yechimining yagonaligi haqidagi teoremani isbotlashda energiya integrali metodidan foydalanilgan.

Masalalar yechimlarining mavjudligini isbotlashda, oldindan noma’lum funksiyaning ushbu $u(x,0)=\tau(x)$, $\lim\limits_{|y|\to 0}|y|^{\beta}(\partial u/\partial y)=\nu(x)$ qiymatlari ma’lum deb hisoblanadi va D^{+} elliptik sohada Dirixle masalasining integral ifodasidan, giperbolik soha D^{-} da esa shakli o‘zgargan Koshi masalasining integral ifodalaridan foydalanib, ta’riflangan masalalar chegaraviy shartlar asosida F.Trikomining nostandart singulyar integral tenglamasiga olib kelinadi. Hosil qilingan nostandart singulyar integral tenglamalar ikkita maxsuslikka ega: 1) yadrolarning «nosingulyar» qismi nokarleman tipdagi siljishga ega; 2) singulyar integral tenglamaning xarakteristik qismida nofredgolm operatorlari bor, aniqrog‘i bu operatorlar birinchi tartibli yakkalangan maxsuslikka ega; 3) singulyar integral tenglama yadrosida turli α va β ko‘paytuvchilar ishtirok etadi. Trikomi integral tenglamasida $\alpha=\beta=1$. Ishda bu tipdagi nostandart tenglamalarni yechish algoritmi yaratilgan: dastlab vaqtincha tenglamaning noxarakteristik qismini ma’lum deb hisoblab, Trikomining siljishli singulyar integral tenglamasiga keltiriladi, uni S.G.Mixlin tomonidan takomillashtirilgan Karleman usulida regulyarizatsiyalab, Viner-Xopf integral tenglamasini hosil qilamiz, bu tenglamaga esa Furye almashtirishini qo‘llab, uni kompleks o‘zgaruvchilar nazariyasining Riman masalasiga olib kelinadi, so‘ng Riman masalasining indeksi 0 ga tengligi isbotlanadi.

Bu esa o‘z navbatida Viner-Xopf integral tenglamasini bir qiymatli ravishda Fredgolmning integral tenglamasiga regulyarizatsiyalanishini ta’minlaydi. Fredgolmning ikkinchi tur integral tenglamasi bir qiymatli yechimga ega bo‘lishi ta’riflangan masalalar yechimining yagonaligidan kelib chiqadi.

НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/30.12.2019.FM.05.04
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ
ФЕРГАНСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ

ТЕРМЕЗСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

МИРСАБУРОВА УМИДА МИРАХМАТОВНА

ЗАДАЧИ СО СМЕЩЕНИЕМ ДЛЯ ЭЛЛИПТИКО-ГИПЕРБОЛИЧЕСКИХ И ВЫРОЖДАЮЩИХСЯ ВНУТРИ ОБЛАСТИ ГИПЕРБОЛИЧЕСКИХ УРАВНЕНИЙ С СИНГУЛЯРНЫМ КОЭФФИЦИЕНТОМ

01.01.02 - Дифференциальные уравнения и математическая физика

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD)
ПО ФИЗИКО-МАТЕМАТИЧЕСКИМ НАУКАМ

Фергана-2024

Тема диссертации доктора философии (Doctor of Philosophy) по физико – математическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за №B 2023.2.PhD/FM867.

Диссертация выполнена в Термезском государственном университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб – странице Научного совета (www.fdu.uz) и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» по адресу (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:	**Уринов Ахмаджон Кушакович** доктор физико-математических наук, профессор
Официальные оппоненты:	**Апаков Юсуфжон Пулатович** доктор физико-математических наук, профессор
	Рузиев Менглибой Холтожибаевич доктор физико-математических наук, доцент
Ведущая организация:	**Самаркандский государственный университет**

Защита диссертации состоится «18» 01 2024 года в 10:00 часов на заседании Научного совета PhD.03/30.12.2019.FM.05.04 при Ферганском государственном университете. (Адрес: 150100, г. Фергана, ул. Мураббийлар, дом 19. Тел: (+99873) 244-44-02, факс: (+99873) 244-44-93, e-mail: fardu_info@umail.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно–ресурсном центре Ферганского государственного университета (зарегистрирована за №326). (Адрес: 150100, г. Фергана, ул. Мураббийлар, дом 19). Тел.: (+99873) 244-44-94.

Автореферат диссертации разослан «05» 01 2024 года.
(протокол рассылки №6 от «04» 01 2024 года).

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

Ш.Т.Каримов
Заместитель председателя научного совета по присуждению ученых степеней, д.ф-м.н., доцент

И.У.Хайдаров
Ученый секретарь научного совета по присуждению ученых степеней, к.ф-м.н., доцент

Э.Т.Каримов
Председатель научного семинара при научном совете по присуждению ученых степеней, д.ф-м.н., доцент

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. При изучении многих математических моделей практического и теоретического характера в мире в большинстве случаев одно из главных мест занимает исследование задач с комбинированными локальными и нелокальными условиями для дифференциальных уравнений смешанного типа, и для вырождающихся гиперболических уравнений. Одной из актуальных задач является исследование и внедрение в практику, обобщение в неклассической форме классических задач для **уравнений смешанного типа с сингулярным коэффициентом (УСТССК)** и **для вырождающегося внутри области гиперболических уравнений с сингулярными коэффициентами (ВВОГУССК),** которые были сформулированы и исследованы в классической постановка для уравнений смешанного типа и вырождающихся внутри области гиперболических уравнений. В связи с этим важным является повышение интереса к исследованию неклассических задач для такого класса уравнений, получение научно обоснованных теоретических и практических результатов, а также их применение в других областях, таких как газовая динамика, гидродинамика, теория бесконечно малых изгибаемых поверхностей, механика, акустика и теория электронного рассеяния.

